
OAV vakillari uchun PRESS-TUR tashkil etildi

Amalga oshiriladigan islohotlar, investitsiya loyihalari negizida xalqqa qulaylik yaratish, ular turmush sharoitini yaxshilash maqsadi yotadi. Shu jihatdan kelib chiqib, har bir shahar va tumanda yil boshidan katta rejalar olinib, yil davomida ularni amalga oshirish ustida ishlar qizg'in davom etadi. Buvayda tumanida ham 2023-yilda rejalashtirilgan loyihalar talaygina. Ularni keng jamoatchilikka tanishtirish maqsadida press-tur tashkil etildi.

Tadbir davomida OAV vakillari tumandagi O'rta Qo'ng'iroq mahallasida bo'lishdi.

Mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchisi Umarov Movlonjon tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, xududlarda yangi ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha erishilgan natijalari bilan tanishildi.

2023-11-29 15:29:31